

## TASVIRIY SAN'AT VA INGLIZ TILI

*Abdullayeva Odinaxon Sherali qizi*

*Andijon davlat universiteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi sirtqi 5 kurs talabasi, Andijon viloyati Buloqboshi tumani 16-umumiy ta'lim maktabining tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tasviriy san'at fanini ingliz tili fani bilan bog'lab o'tish jarayonlari, ranglarning ingliz tilida nomlanishi, tasviriy san'atda ishlatiladigan bo'yoqlarning aralashmasidan hosil bo'ladigan ranglarni alohida ingliz tilidagi nomlari haqida tarjimalar berib yoritiladi*

**Kalit so'zlar:** *tasviriy san'at, kompozitsiya, ranglari uyg'unligi ,bo'yoqlar, tasavvur, metodikalar.*

Har bir fan o'qituvchisi kabi tasviriy san'at fani o'qituvchisi ham pedagogika nazariyasi va darsni interaktiv hamda qiziqarli qilib o'tkazish bo'yicha prinsiplarni mukammal o'rganishlari talab qilinadi. O'quvchi yoshlar hozirgi kunda davr talabi bo'lgan ingliz tili fanini chuqur va mukammal o'rganishga diqqat qilishmoqda. Shuningdek, ingliz tilini har sohada mukammal bilish insonga ortiqchalik qilmaydi. Ko'pchilik pedagoglar o'z yo'nalishida o'quvchilariga ingliz tilini qisman bo'lsada fanga bog'lab, fanning asosiy formula yoki maqsadini xorijiy tilda bemalol o'rganib ketishlarini ta'minlamoqda. Aslida, ko'plab tasviriy san'atga doir so'zlar ingliz tilidan kelib chiqqani hammamizga ma'lum. Tasviriy san'at fani amaliy fan bo'lganligi bois, fandagi qilinadigan amallar, foydalaniladigan anjomlar, bo'yoqlar ranglari ingliz tilida qanday atalishini dars davomida o'quvchilarga o'rgatish o'qituvchining chet tilida yetarlicha bilimga ega ekanligini ko'rsatib beradi. Masalan: dars boshlandi, o'qituvchi darsga o'quvchilarni yanada qiziqtirish maqsadida darsni inglizcha salomlashishdan boshlaydi. Bu o'quvchilarda ajoyib qiziqish uyg'otadi. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilariga biron-bir rasm chizishda ishlatiladigan har bir detalni va ish-harakatni inglizcha qanday nomlanishini aytib o'tadi. Masalan: chizmoq so'zining ingliz tilida bir

necha xil tarjimalari mavjud, bular– **to sketch, to draw, to illustrate, to portray, to depict**. Rasmni bo'yamoq esa – **to paint, to color, apply paint to** kabi tarjima qilinadi.



Agar rasmda biror kamchilik yoki xato joyi bo'lsa o'chirib qaytadan chiqamiz. Va o'chirmoq so'zi quyidagicha tarjima qilinadi–**to erase, to wipe off**.

San'atning ijobiy va eng muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq, voqea-hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik badiiy obrazlarda ifodalaydi. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi har tomonlama shakllangan tasviriy san'at o'qituvchisini tayyorlash, unga estetika, san'at va materialistik tushunchalarni berish va rasm chizish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga:

1) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tabiat, jamiyat- dagi narsa va hodisalarni kuzatish, ko'rish, ularni ilmiy asosda idrok etishga o'rgatish;

2) talabalarning badiiy didi, estetik tushunchasi, dunyoqa- rashi, go'zallikni his etishi, ijodiy iste'dodi va ijodkorlik qobi- liyatini tarbiyalash;

3) rassomchilikning barcha tur vajanlaridagi san'at asarlarini ko'ra bilish, idrok etish, ulami qalbaki rasmlardan farqlay olish ko'nikmalarini rivojlantirish;

4) narsa, voqea, hodisalar tasvirini — rasmini chiza biUsh, ulami ijodkorlik asosida bajarishga oid malaka-ko'nikmalar hosil qilish;

5) bo'lajak pedagoglarga eng oson, qisqa, ilmiy va didaktik prinsiplar asosida, zamonaviy uslubda rasm chizishni o'rgata olish kabi vazifalami qo'yadi.

Tasviriy san'atning ko'plab janrlari mavjud bo'lib, ular ingliz tilida quyidagicha nomlanadi:

**Haykaltaroshlik janri – Sculpture genre .** Haykaltaroshlik - tasviriy san'atning bir turi bo'lib, lotincha «skulpo» so' zidan olingan, qattiq materiallarga «qirqish, kesish, o' yish, tarashlash» orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi. Haykaltaroshlik san'ati ko'rinishiga qarab, dumaloq va qabariq (relief) haykallar yaratish turiga bo'linadi. Dumalog haykallarni hamma tomondan ko'rish mumkin. Agar bu san'atda inson obrazining bosh qismi yoki beligacha tasvirlansa, bunday haykallar byust deb ataladi. Relief (qabariq) haykallar esa yuzaga bo'rttirib ishlangani uchun faqat bir tomondan ko'rishga mo'ljallangan bo'ladi. Releflar o'z o'rnida Gorelef va Barelef guruhiga bo'linadi. Gorelef - yuzaga yopishgan holda nisbatan bo'rtib ko'rinadi. Goho biror bir bo'lagi dumaloq haykal darajasida ham bo'ladi. Bareleflar yuzaga nisbatan kam bo'rtib tasvirlanadi, bu o'rinda tanga va taqinchoqlarni misol keltirish mumkin. Haykaltaroshlik asarlari asosan qattiq

jismlardan - tosh, yog'och, marmar, granit, bronza, gips va boshqa shu kabi materiallardan tayyorlanadi. Bu materiallar haykalga turli xarakter va mazmun berishda xizmat qiladi. Masalan, tosh-granitdan ishlangan haykaliar kishida ulug'vorlik, abadiylik baxsh etsa, aksincha marmardan ishlangan haykallar nozik ko'rinadi. Shuning uchun haykallar o'zining mazmuni va o'rnatiladigan joyiga qarab har xil materiallardan ishlanadi. Haykaltaroshlik materiallari ko'p. Bu plastilin, loy, yog'och, metall, marmar, granit, suyak, sement, gips va hokazolardir. Qimmatli metallar - oltin, kumush, nikellar ham haykaltaroshlikda qo'llaniladi. Haykaltaroshlik asarida tevarak-atrofdan bo'lgan munosabat, qalbidagi iztirob ham ishonarli talqin etilishi mumkin. Bunda, albatta, eng avvalo haykaltaroshning o'ta ziyrakligi, odam gavdasi va mimik o'zgarishlarini to'g'ri

ifodalashi muhim o'rinni egallaydi. To'g'ri topilgan harakat, yuzdagi mimik holat - bular uning ta'sirli bo'Mishiga zamin tayyorlaydi. Eynulla Aliyev, Abdumo' min Boymatov, Ulug'bek Mardiyev, Ilhom Jabborov kabi haykaltaroshlar shu sohada samarali ijod qilishmoqda.

**Portret janri – Portrait genre.** Insonning ichki ruhiy olami bilan bog'langan holda aniq bir obraz yaratilishi portret san'ati deb yuritiladi. Portretda insonning to'la gavdasi, yarmi yoki yuz qiyofasining faqat o' zi ham bo'lishi mumkin. Portret yaratish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki ruhiy, ma'naviy, shuningdek, tashqi ko'rinishidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan san'at darajasidagi asar bo'lishi mumkin.

**Tabiat janri- Nature genre.** Go'zal ona tabiatning turli ko'rinishdagi aksi ifodalanadigan janr hisoblanadi. Ushbu janr turli davlatlar tabiatini ko'rsatib berishdabuyuk rassomlar tomonidan mahorat bilan ishlatilmoqda. Darsning qay darajada qiziq o'tilishi o'qituvchining ham pedagogik, ham psixologik tajribalariga bog'liq. Ushbu qo'llanmalar orqali dars yanada faol hamda qiziqarli qilib o'tiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. S.F.Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. - T.: «Fan va texnologiya», 2012, 8-7 bet.
2. Zarina, Muhammadiyeva, and Qayumova Sabina. "THE PRACTICAL IMPORTANCE OF TYPES AND GENRES OF FINE ARTS IN HUMAN LIFE."
3. B. N. Oripov – “Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi” Toshkent 2012.